

Yangi Iqtisodiy Siyosat (NEP) Ning Savdo Va Sanoat Sohasidagi Ahamiyati

Yunusova B. A

AnDU katta o'qituvchisi

Turdiyeva M

AnDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida o'zbek qishloqlarining umumiy holati, yerdan foydalanish, qishloq xo'jalik, ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos xususiyati, yangi iqtisodiy siyosatning savdo va sanoat sohasidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi iqtisodiy siyosat, sanoatmetall, qurilish tresti, Turksoyuz, tovar, savdo, sanoat, natural, teri mahsulotlari, mo'yna, jun, pilla, quruq meva.

XX asrning birinchi yarmida Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatning joriy qilinishi va bu jarayonda bozor munosabatlari ilk kurtaklarining shakllanishi, rivojlanishi hamda bu borada to'plangan tajribalar tarixi katta qiziqish uyg'otadi. Yangi iqtisodiy siyosat davrida davlat tomonidan boshqariladigan va nazorat qilinadigan bozor mexanizmi yaratilgani tufayli ham, 1920-yillar tarixiy tajribasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi iqtisodiy siyosat davrida, ya'ni asosan, 1921-1929-yillarda Turkistonda ham bozor munosabatlari qaror topib, qishloqda xususiy mulkchilik rivojlandi, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish sezilarli darajada o'sdi.

Turkiston qishloq xo'jaligida bo'lgani kabi uning sanoatida ham 1920-yilga kelib chuqur inqiroz yuz berdi. Ayniqsa, qayta ishlash, qazib chiqarish tarmoqlari va transport butunlay izdan chiqqan edi. O'lka sanoati yalpi mahsulotning umumiy hajmi 1920 - yilda 1914- yildagiga nisbatan 80%ga kamaygan edi, paxta tolasi, paxta yog'i, shulxa ishlab chiqarish 17 barobar pasayib ketgan edi. Temir yo'llarda paravozlarning beshdan bir qismi zo'rg'a ishlayotgan edi. Toshko'mir va neft qazib chiqarish esa kundalik ehtiyojlarini ham qoplamas edi [6.363-364].

Yangi iqtisodiy siyosat islohotlarini sanoat sohasida qo'llanishining tarkibiy elementlaridan biri lenincha "davlat kapitalizmi" g'oyasi edi. U xo'jalik yuritishning nosotsialistik shakllarini vaqtincha tiklashni nazarda tutar edi, biroq muhim sohalar, birinchi navbatda yirik sanoat sotsialistik qayta qurishning asosiy ijrochisi, mulkdori va boshqaruvchisi bo'lgan davlat qo'lida saqlanayotgan edi. Sanoat ishlab chiqarishning sotsialistik sektorida yetakchi bo'lgan Yangi iqtisodiy siyosat yo'nalishi sanoatda va korxonalarda qat'iy rejalashtirishni va xo'jalik hisobini joriy etish asosida boshqaruvni keng miqyosda qayta qurishga qaratildi, u so'm bilan nazorat qilinishi va ishlab chiqarish demokratiyasini bir qadar kengaytirishni ta'minlar edi. 1921-yilda sanoatga rahbarlik qilishni qayta tashkil etish amalga oshirildi. Uning asosiy mohiyati yirik va muhim korxonalarda ishlab chiqarishni markazlashtirishdan iborat edi. Bir xil mahsulotlar ishlab chiqaradiganlar birlashtirildi, foyda keltirmaydiganlari esa, yopildi. Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida davlatning sanoatni qayta tashkil etish siyosatining eng maqbul shakli sifatida ishlab chiqarish birlashmalari – markazlashgan trestlar e'tirof qilindi. 1921-yilning oxiriga kelib Turkistonda ana shunday trestlardan 10 tasi tashkil qilindi, ular xo'jalik hisobiga o'tkazilgan 99 ta yirik korxonani birlashtirgan edi. Masalan, yoqilg'i sanoati korxonalari "Turkyoqilg'i tresti"ga,

metal ishlash sanoati korxonalari “Sanoatmetall” trestiga, binokorlik materiallari korxonalari “Qurilish tresti”ga, un-tegirmon sanoati korxonalari “Untrest”ga birlashtirildi [4.77] .

Bundan tashqari Turkistonda xo‘jalik hayotining ko‘plab sohalarini qamrab olgan boshqa trestlar ham mavjud edi. Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashgan organlari o‘rniga kelgan trestlar yangi shakllanib kelayotgan xo‘jalik mexanizmining bir qismi sifatida iqtisodiyotning rivojlanishida ijobiy rol o‘ynadi. Natijada, Turkiston Respublikasi Oliy Xalq Xo‘jalik Kengashi tasarrufidagi ishlamay turgan korxonalar soni 46%dan 28%ga tushdi [5.6] .

Turkiston sanoati birinchi navbatda sotsialistik ishlab chiqarish vositasi sifatida tiklandi va rivojlandi. Umuman yalpi mahsulot ishlab chiqarish sohasida 1924-yilda davlat sektori ulushi 97,1%ni, xususiy kapitalistik sektor ulushi 1,8%ni va kooperativ sektor ulushi, 1,1%ni tashkil etdi. Xususiy kapital sanoatning muhim bo‘lmagan asosiy tarmoqlariga ishlatilishi mumkin edi va qat‘iy davlat nazorati ostida bo‘lar edi. Bu kapitalni tiklash shakllaridan biri ijaraning joriy etilishi bo‘ldi. OXXKga bo‘ysunadigan korxonalarni ijaraga berish RSFSR XKKning 1921-yil 5-iyuldagi dekreti bilan belgilangan edi. Mazkur dekretga binoan, faqat norentabel, mayda va faoliyati to‘xtatib qo‘yilgan korxonalarni ijaraga berish tavsiya etilgan edi. Ijarachilar esa, asosan, xususiy shaxslar bo‘lib, ular ko‘p hollarda korxonalarining yoki kooperativ tashkilotlarning sobiq egalari edi. Amalda, Sovet davlati sanoat sohasida xususiy tashabbusning keng tarqalishini cheklashga, xususiy kapital mavqeining kuchayishiga ta’sirchan to‘siq qo‘yishga butun vositalar bilan urindi. Shunday bo‘lsa-da, qattiq shartlarga qaramasdan, xo‘jalik yuritishning yangicha shakllari kirib kelaverdi. 1921-yildayoq TASSRda 86 ta korxonalar ijaraga berilgan edi. Garchi davlat monopoliyasi hukmron bo‘lsa-da, xususiy kapital paxtachilikka zo‘r qiziqish bilan qaradi. Xususiy kapitalga mayda va yarim - yorti buzilgan paxta tozalash va yog‘ zavodlari ijaraga berildi. Turkistonda yirik fabrika-zavod sanoatining zaif darajada rivojlanishi hunarmandchilikni rivojlanishi uchun imkon yaratib berdi. Xom ashyo tayyorlash va mahsulot sotishning birgalikda olib borishning foydali ekanligini tushungan hunarmandlar artellariga birlashdilar, hunarmandchilik kooperatsiyasini tashkil etdilar. 1921-yilda o‘lkada ishlab chiqarishning turli tarmoqlariga oid 1270 kooperativ-hunarmandchilik artel tarmoqlari ishlab turar edi, ularga 30 mingga yaqin hunarmandlar birlashgan edi .

NEP sharoitida qishloq xo‘jalik va hunarmandchilik -sanoat kooperativ tizimlari oldida bir qancha muammolar turar edi. Ular zimmasiga mayda yakka xo‘jaliklarni iqtisodiy jihatdan birlashtirish, ularni elektrlashtirish va mexanizatsiyalash asosida texnika vositalari bilan ta‘minlash, fan va texnika yutuqlari asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirib borish vazifalari yuklangan edi. Kompartiya Markaziy Komiteti kooperatsiya masalasida ham shahar va qishloq aholisi o‘rtasida siyosiy tashviqot ishlarini faollashtirish uchun bu muassasalarga mutaxassislar va kommunistlar safarbar qilindi. Biroq, kooperatsiyalarning bu davrdagi faoliyat ko‘lami mayda xususiy ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu kompartiyaning dasturlariga ma‘lum ma‘noda zid edi. Mayda xususiy ishlab chiqarishni qo‘llab - quvvatlash tom ma‘noda burjuaziyani rivojlantirish yoki kapitalizmga qaytish demak edi. Shu sababli ham bu davrda ko‘plab kommunistlar kooperatsiya tizimlarida ishlashdan bosh tortganlar. Kooperatsiyalarni rivojlantirish g‘oyasiga yuqori partiya organlarida, hatto Markaziy Komitet ichida ham qarshilar juda ko‘p edi. Shu boisdan kooperatsiya qurilishi masalalari X, XI, XII partiya konferensiyalarida hamda kompartiya XI syezdida keng muhokama qilindi.

Kooperatsiyalarni quyidan to‘yuqorigacha xo‘jalik mustaqilligini tiklash uning ish faoliyatidagi quyidagi prinsiplarni tan olish bilan belgilandi: ko‘ngilli ravishda a‘zo bo‘lish, moddiy manfaatdorlik, a‘zolik badallari va paylar bo‘yicha foydalarni taqsimlash. Bu prinsiplarning tan olinishi kooperatsiyalarning xo‘jalik jihatdan mustaqil ish yuritishini ta‘minladi. Qishloqdagi tiklash jarayonlari mahsulot ayirboshlashni jonlantirish bilan boshlandi. Bu esa matlubot kooperatsiyalarining nisbatan dinamik rivojlanishi bilan asoslanadi. Matlubot kooperatsiyalarining funksiyasi Xalq Komissarlari Sovetining 1921-yil 7-apreldagi “Matlubot kooperatsiyalari to‘g‘risida”gi dekreti bilan aniqlashtirib berildi. Dekretga muvofiq Sentrosoyuz oldiga mahsulot ayirboshlashni tashkil etish, shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta‘minlashni zudlik bilan yaxshilash, sanoatni xom ashyo bilan, qishloq aholisini sanoat mahsulotlari bilan ta‘minlash vazifasi qo‘yildi.

Dekretning butun mazmuni shahar bilan qishloq o'rtasida mahsulot almashinuvini yo'lga qo'yish va rivojlantirishga qaratilgan edi [1.230].

Biroq og'ir iqtisodiy sharoitlar tufayli kooperatsiyalar baribir davlat manfaatlari uchun xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan edi. Bu bir tarafdin mo'ljal bir qator salbiy oqibatlariga ham sabab bo'ldi. Masalan, 1921-yil oxirlarida kooperatsiyalar faoliyati tahlil qilinganda, umumiy holat ko'rinishi shunday bo'lganki, kooperatsiyalarning asosiy faoliyati sanoat ishchilari va shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat bo'lib qolgan, oziq-ovqat yetishtiruvchi qishloq aholisini esa zaruriy asbob-uskunalar, jihozlar bilan ta'minlash masalasiga yetarli e'tibor qaratilmagan.

Kooperatsiyalarning jonlanishiga davlat tomonidan ko'rsatilgan yordam asosiy ta'sir ko'rsatdi. Sentrosoyuz sotsialistik sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasida asosiy vosita sifatida qo'yildi. Kooperatsiyalar kredit, soliq, narx-navo, mahsulot bilan ta'minlash sohalarida bir qator imtiyozlarga ega bo'ldi. Bular kooperativ orqali mahsulot ayirboshlashning o'sishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Faqatgina 1921-yilning sentabridan dekabr oyi o'rtalarigacha Sentrosoyuzning savdo operatsiyalari hajmi 2 milliard so'mdan 80 milliardga- ya'ni 40 barobarga o'sdi. Davlat organlariga shartnoma bo'yicha topshirilgan mahsulotlar hajmi 5 martaga oshib, 30 milliard so'mdan 146 milliard so'mga yetdi [2.266] .

Shahar bilan qishloq o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi bilan bir vaqtda kooperatsiyalarning kredit funksiyalari ham jonlanib bordi. Vayron bo'lgan qishloq asta-sekin jonlanib, yerdan foydalanishning intensiv usullariga o'ta boshladi, chorva hayvonlari soni oshib bordi, qishloq xo'jalik jihozlari ham yangilanib, takomillasha boshladi hamda bozor munosabatlari qaror topa boshladi. Bu jarayonlar o'z navbatida dehqon xo'jaliklarini kredit mablag'lariga bo'lgan katta ehtiyojini tug'dirdi. Yangi iqtisodiy siyosatning boshlang'ich davrida davlat dehqonlarga yetarli darajada moliyaviy yordam ko'rsatishga qodir emas edi. NEP burjuaziyasi va quloqlar kambag'al dehqonlarning asosiy kredit ta'minotchilari edi. Shu sababli, kredit munosabatlarini kooperatsiyalashtirish muhim ahamiyatga ega edi. Dehqon xo'jaliklarining barcha qatlamlarini kooperatsiyalar tevaragida birlashtirish badavlat qatlamlarning kapitalarini maqsadli yo'naltirish va kredit munosabatlarini davlat va jamiyat nazoratiga olish nuqtai nazaridan muhim sanalar edi. Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida kooperativ harakat o'zining mustahkam asosiga ega bo'ldi. Tovar almashuv munosabatlari o'sib, dehqon xo'jaliklarining ishlab chiqarish mahsuldorligi ham ortib bordi. Dehqon xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyatining alohida sohalarining turli kooperativ tizimlari tomonidan qamrab olinishi kelgusida kooperativlarning quyi formalaridan yuqori formalariga o'tishga zamin tayyorladi. Tiklanish davrining xo'jalik sohasidagi yutuqlari kooperatsiyalar tizimi uchun bir qator yangi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni qo'ydi. Sanoat, transport va qishloq xo'jaligi sohalaridagi ko'tarilish bozor munosabatlarini tartibga solishni va to'g'ri yo'lga qo'yishni hamda kooperatsiya tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etar edi.

Bozor munosabatlarini tashkil etish va boshqarish birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirishni, tovar ishlab chiqaruvchi apparatni shakllantirishni hamda kambag'al-o'rtahol dehqonlar qatlamini asosiy qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari sifatida qo'llab-quvvatlashni taqozo etar edi. Buning uchun narx-navoni, kredit va boshqa moliya manbalarini nazorat qilib borish zarur edi. Buning uchun dehqon xo'jaliklari bilan sotsialistik sanoat o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish zarur deb topildi [3.233].

1923-1924-xo'jalik yillarida TASSRdagi butun yirik va o'rta sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 1921-yildagiga nisbatan 1,7 martadan ziyodroq ko'paydi. Sanoatning tiklanishi va rivojlanishi bolsheviklar istaganidek respublikada sinfiy tabaqalanishni sezilarli darajada tezlashtirdi. 1922-yil yanvardan 1925-yil yanvargacha ishchilar va xizmatchilarning soni 6244 kishidan 14824 kishiga yetdi. Ishchilarning 30%ini mahalliy millat vakillari tashkil etar edi. Binobarin, shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning tiklanish sur'atlari YISning joriy qilinishi munosabati bilan iqtisodiy o'sish uchun yaratilgan imkoniyatlarga mutlaqo mos kelmas

edi. 1923-1924-xo'jalik yillarida respublika sanoatining yalpi mahsulotining miqdori 1914-yilgi darajaning faqat 65%ini tashkil etar edi [6.317].

Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi munosabati bilan qishloq xo'jalik xom ashyosini tijorat asosida tayyorlash va sotish bilan shug'ullanadigan savdo-iqtisodiy tuzilmalari tashkil etila boshladi. Bunday savdo-iqtisodiy tuzilmalar orasida Turkiston matlubot jamiyatlari ittifoqi (Turksoyuz), Turkiston paxtachilik ittifoqi, Rossiyadagi RosSredaz idorasi va boshqalar bor edi. Ular yo'l qo'yiladigan imkoniyatlar doirasida bozor mexanizmlaridan foydalanib tovar ayirboshlashni amalga oshirar edi. Masalan, Turkiston respublikasi XKKning 1921-yil 19-oktabrdagi qaroriga muvofiq, Turksoyuzga respublika ichida ham, Rossiya mintaqalari bilan ham 1) natural ayirboshlash 2) aralash ayirboshlash 3) tovarlarni pul bilan oldi-sotdi qilish kabi ayirboshlash shakllaridan istalgan bittasidan foydalangan holda tovar ayirboshlashni amalga oshirish huquqi berildi. Sovet rejimi Turkistonning qazilma boyliklari va barcha xom ashyo mahsulotlaridan unumli foydalanishga intildi. Turkiston respublikasidan Markazga paxta xom ashyosidan tashqari doimiy ravishda qorako'l teri va teri mahsulotlari, mo'yna, jun, pilla, quruq meva va boshqalar tashib ketildi.

1923-yilda mahalliy pul sistemasi o'rniga uch respublikada yagona valyuta-chervon so'm joriy qilindi. Shu bilan bir qatorda respublikalarning bank sistemasi RSFSR bank sistemasining bir qismiga aylandi. Chor imperiyasi tomonidan boshlangan mintaqa bozorlarini egallab olish siyosati, nihoyat, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining tuzilishi bilan sovet davriga kelib o'zining mash'um nihoyasiga yetdi. Turkiston dehqonlari Turkiston MIQning 1922-yil 22-apreldagi "natura solig'i to'g'risida"gi qarorini katta quvonch bilan kutib olishdi. Chunki ushbu yillarga kelib, hukumat qishloq aholisining g'azab-nafrati ortib borayotganini hisobga olmaslikdan boshqa choralari yo'q edi. Ushbu qaror bilan barcha uchun manfur bo'lgan "oziq-ovqat razvyordkasi" bekor bo'lar edi. Mazkur qarorning amalga oshirilishi dehqonlarning turli toifalaridan olinadigan soliqni nafaqat kamaytirdi, shu bilan birga ishlab chiqarishni tartibga solishning iqtisodiy omillarini rivojlantirishga imkon berdi. Biroq dastlabki yilda oziq-ovqat solig'i g'oyasi juda zaif amalga oshirildi. Turkistonda oziq-ovqat solig'i 8 xil natura solig'idan tashkil topar edi. Turkistonda oziq-ovqat solig'i natura shaklini joriy qilinishini oziq-ovqatning keskin yetishmasligi, inflyatsiyaning avj olishi, pul muomalasining izdan chiqqanligi taqazo etgan edi. Biroq oziq-ovqat solig'ining bu shakli soliq to'lovchilar uchun ham, soliq idoralari uchun ham mahsulotni tashib keltirish va saqlash bilan bog'liq bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shuning uchun qishloq xo'jaligining sog'lomlashuvi va dehqon xo'jaliklari moliyaviy ahvolidan mustahkamlanishiga qarab soliqni bixillastirish yuzasidan choralar ko'rilgan boshlandi. 1923-yil 13-iyunda Turk MIQ va TASSR XKK oziq-ovqat solig'idan yagona qishloq xo'jaligi solig'iga o'tish to'g'risida dekret chiqardi. Natijada, tovar-pul munosabatlarining subyekti bo'lgan dehqonlarning roli sezilarli ravishda kuchaydi. Tovar-pul munosabatlarining yangi tizimini shakllantirish jarayonlarini kuchayishiga YISni faqat agrar va sanoat ishlab chiqarish sohasidagina emas, balki shahar xo'jaligi, aholiga savdo, maishiy va madaniy yordam ko'rsatish sohalarida qo'llashga yordam berdi. Hamma joyda savdo shohobchalarini, umumiy ovqatlanish korxonalarini, uylar, tomosha muassasalari, hammom, bozor, yer uchastkalari va boshqa obyektlarni ijaraga berish tajriba qilina boshlandi. Yangi iqtisodiy siyosat voqeiligining ijobiy tomoni shu bo'ldiki, davlatning xususiy kapital bilan, ijarachilar, turli-tuman mol-mulk egalari va xo'jaliklar bilan munosabatlari soliqlar orqali yo'lga qo'yildi.

Xullas, 20-yillarning birinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan iqtisodiy vaziyatga umumiy baho berib shuni aytish mumkinki, jamiyat hayotining barcha sohalarida boshlangan erkin faoliyat jarayoni, yangi iqtisodiy siyosat prinsiplari va tarkibiy qismlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari vayronagarchilikni sekin-asta tugatishga va xo'jalik hayotining tiklanishiga olib keldi. Iqtisodiy jonlanish sanoat, qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq sohalarini qamrab, tovar-pul munosabatlarida o'z aksini topdi.

Manba va adabiyotlar:

1. Директивы КПСС и Советского правительства по хозяйственным вопросам. – Москва: 1957.
2. История крестьянства СССР. История советского крестьянства. Е.1.- с. 266

3. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Изд. 9-е, ..3. –с. 233
4. Улмасбаев Ш.Н Промышление развитие Советского Узбекистана. Т. 1958. С 77
5. O‘zR MDA, 25-fond, 1-ro‘uxat, 108-yig‘majild, 6-varaq
6. O‘zbekiston SSR tarixi. 4 tomlik.Uchinchi tom. Bosh muharrir Mo‘minov I.M.- T.: “Fan”, 1971.